
350 GEKTAR MAYDONNING SUG'ORILISHI YAXSHILANADI

Bag'dod tumani hokimi Alibek Tursunov 9 oktyabr kuni uchun tuzilgan ish rejasiga muvofiq, joylarda amalga oshirilayotgan yangi investitsiya loyihalari bilan tanishish maqsadida dastlab tumanning "Dasht" mahalla fuqarolar yig'ini hududida bo'ldi.

🏠 Ushbu hududdan o'tuvchi "Qatag'on" kanali ayni kunlarda rekonstruktsiya qilinmoqda. 3,5 km. uzunlikdagi kanal oxirgi yillarda e'tibordan bir oz chetda qolgani bois, dasht massividagi qishloq xo'jaligi yerlarini sug'orishda ko'plab muammolar to'planib qolgan edi. Shuni inobatga olgan holda, bahor oylarida kanalning 1,3 km.lik qismida ta'mirlash ishlari olib borilgan edi.

🌳 Qolgan 1,2 km.lik qismi ham tez orada to'liq ta'mirlanadi, - deydi tuman irrigatsiya bo'limi boshlig'i Ulug'bek Haydarov. - Mazkur suv inshooti to'liq rekonstruktsiya qilingach, tevarak-atrofdagi 350 gektar ekin maydonini sug'orish darajasi yaxshilanadi. Bu esa, qo'shimcha daromad, yangi ish o'rinlari degani. Axir suv bor joyda hayot bor!

Tuman hokimi A. Tursunov jarayon bilan yaqindan tanishish asnosida mas'ullarga qo'shimcha topshiriq va ko'rsatmalar berdi.

Bag'dod tumani hokimi Axborot xizmati.

2020-10-09 16:38:18